

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTISIH METODIKASI

**Asror Abdulloyevich Kasimov**

*BuxDU Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
asorkasimov3@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Maqolada boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish metodikasi va uni amaliyotda qo'llash haqida tushunchalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich sinfdan tashqari, ijodiy qobiliyat, metodika.*

**Аннотация:** *В статье представлены представления о методике формирования внеурочных творческих способностей в младших классах и ее практическом применении.*

**Ключевые слова:** *Начальная, внеаудиторная, творческая способность, методика.*

**Annotation:** *The article presents ideas about the methodology for the formation of extracurricular creative abilities in the lower grades and its practical application.*

**Key words:** *Primary, extracurricular, creative ability, methodology.*

Yangi O'zbekistonda islohotlar zamonaviy texnologiyaga bo'lgan talabni oshirib, uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida moddiy-texnik bazani yaxshilashga e'tibor qaratishda ijodiy yondashishni talab qiladi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining sinfdan tashqari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va yaxshilash hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining sinfdan tashqari ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, albatta, uning bevosita faoliyatida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi fanning barcha yo'nalishlaridan atroflicha bilimga ega bo'lishi, fanlararo integratsiyani uzviy bog'lagan holda umumlashtira olish mahorati bo'lishi kerak. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari bilan ishlash o'qituvchidan katta mas'uliyat, sabr-qanoat, iroda, yuqori darajada psixologik tayyorgarlikni talab etadi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchini kelajak hayotga tayyorlashdan iboratdir.

O'quvchi kundalik ishlarning davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tayyorlashda ishtirok etadi. Qolaversa bular orqali ma'naviy dunyosi boyib, kengayib boradi bu o'quvchilarga yomon illatlar begona bo'ladi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga vazifalarni qo'yish shart. Sinfdan tashqari ta'limiy-tarbiyaviy ishlar o'qituvchining yillik ish rejasida aniq ko'rsatilgan, maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. O'qituvchi ko'proq o'zlashtirishi qiyin bo'lgan, darsga faol

qatnashmaydigan, o'quvchilar bilan do'stona munosabat qilishi qiyin bo'lgan o'quvchilarni sinfdan tashqari ishlarga ko'proq jalb qilib, ularning faolligi oshirsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchi ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishi kerak:

O'quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;

Darsda olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilishi ;

Aniq maqsad va reja asosida uyushtirilishi;

Tadbir orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida hamlorlik, uyushqoqlik, o'zaro yordam, jamoa bo'lib ishlash kabi axloqiy sifatlarining tarkib toppish; Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning faolligini oshirishda o'tkaziladigan bellashuv, musobaqalarni va ommaviy tadbirlarni mavzularga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda maktab va sinf rahbari ish rejalarida o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish, kadrlar malakasini oshirish, maktab o'qituvchilari orasida seminar, anjumanlarni tashkil etish kabi masalalarni rejalashtirish hozirgi kunning muhim talablaridan biridir.

O'quvchilar faolligini oshirishda sinfdan tashqari tadbirlar asosida ularning qiziqishlarni belgilab olish va mashg'ulotlarga jalb etish masalasi o'qituvchining oldida turgan bugungi dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning asosiy vazifasidan biri -o'quvchilar hayotini zavqli, sermazmun va madaniy qilish, ularni jamoa bo'lib yashashga va ishlashga o'rgatishdan iborat. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning shakllari:

a) og'zaki ish usullari (siyosiy axborotlar, majlislar, sborlar, ma'ruzalar, dokladlar, munozaralar, uchrashuvlar, savol-javob kechalari, bahslar );

b) amaliy ish usullari: kultpoxodlar, ekskursiyalar, spartakiadalar, olimpiadalar, konkurslar va o'quvchilar faollari bilan olib boriladigan ishlar, yashil patrullar, texnika ijodi, yosh texniklar to'garaklari, shanbaliklar va boshqalar;

v) ko'rgazmali ish usullari: maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari galereyasi, badiiy ijod vositalari, tashkiliy stendlar va boshqalar.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari bo'lib, ular quyidagilarga bo'linadi:

-Ommaviy ishlar-o'quvchilar orasida olib boriladigan siyosiy- oqartuv ishlari bilan bog'liq bo'lgan, ichki va tashqi siyosatning aktual masalalari, siyosiy axborotlar, suhbatlar, dokladlar, ma'ruzalar;

- (1-sentyabr, 8-mart, 9-may, 1-oktyabr, 21-mart va boshqalarga) bag'ishlangan adabiy-badiiy yig'ilishlar;

- Madaniy-ommaviy tadbirlar;

- Adabiy kechalar, spektakllar, badiiy havaskorlik kechalari, o'tkir zehnlilar tortishuvlari va boshqalar;

- Guruhiy ishlar: Bunda o'qituvchi sinfdan tashqari o'quvchilarning ma'lum bir guruxi bilan tarbiyaviy ishlar va tadbirlarni o'tkazishi mumkin.

- Individual ishlar: bunda o'qituvchi yoki tarbiyachi o'quvchining individual yosh xususiyatlariga qarab ish tutadi. Masalan: tortinchoq, passiv o'quvchilar har bir sinfda ham uchraydi. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarda quyidagi tarbiyaviy tadbirlar muhim o'rinni egallaydi:

- a) siyosiy axborotlar;
- b) o'quvchilarning ishlab chiqarish ilg'orlari, atoqli kishilar bilan uchrashuvlari;
- v) fan to'garaklari;
- g) klublar, o'lkani o'rganish to'garaklari, maxsus to'garaklar jismoniy, madaniy sport to'garaklari, maktab mashg'uloti, sinfdan tashqari kitobxonlik va boshqalar.



Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim olishning poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o'quvchilarda ijodiy faoliyatini rivojlantirishni taqoza etadi. Shunday ekan o'quvchilarning ijodkorli, ijodiy faoliyatini rivojlantirish lozimligi kun tartibdagi muammo bo'lib qoldi. Hozirgi kunda, 1-4-sinf o'quvchilariga ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiboriga olish, ta'limni samarali tashkil etishda darslarni noan'anaviy tarzda o'tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ularni har tomonlama yetuk bo'lishiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Qosimova M. M., Kasimov A. A. On some typical problems to be solved in primary schools //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 502-517.
2. Amriddinova S. S. et al. THE ROLE OF DENTISTRY IN THE STUDY OF THE ORAL CAVITY AND MAXILLOFACIAL AREA //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 1299-1303.
3. Rustamovna, Bafojeva Mohinur. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MATEMATIK TASAVVURLARNI RIVOJLANISHDA O'LCHAM TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI." PEDAGOGS jurnali 1.1 (2023): 152-152.
4. Abdulloyevich, Kasimov Asror. "DARSDAN TASHQARI MASHG 'ULOTLAR JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINIF O 'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH." Новости образования: исследование в XXI веке 1.6 (2023): 39-44.
5. Abdulloyevich K. A. Development of Creative Abilities of Primary School Students in the Process of Extracurricular Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 232-235.
6. Abdulloevich K. A. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 148-148.
7. Saidahrolovich K. S., Akabirovich M. A. FEATURES OF THE SYSTEM OF FINANCING AND FORECASTING OF MODERN CLUSTERS OF VITICULTURE IN UZBEKISTAN //British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2023. – Т. 15. – С. 78-85.
8. qizi Nasiba, Nasimova Nasimova Nasiba Qurbon. "MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING MUSIQAVIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH." Scientific Impulse 1.4 (2022): 1526-1530.
9. Kuldoshev R. et al. Mathematical statistical analysis of attainment levels of primary left handed students based on pearson's conformity criteria //E3S Web of Conferences. – 2023. – Т. 371. – С. 05069.
10. Avezmurodovich Q. R. et al. "Yozuv daftari" asosida boshlang 'ich sinf o 'quvchilarining chiroyli yozish ko 'nikmasini shakllantirish usullari (1-sinf misolida) //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1312-1317.
11. Avezmurodovich Q. R. et al. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING GRAMMATIKAGA OID TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMIY O 'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1328-1335.
12. Avezmurodovich Q. R., Usmonovna S. S. CHAPAQAY O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH VA YOZUVGA O 'RGATISH JARAYONIDA FOYDALANADIGAN INNOVATSION

TEKNOLOGIYALAR (1-SINF MISOLIDA) //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1336-1341.

13. Qo'ldoshev R. MAKTAB O'QUVCHILARINING GRAFIK VA KALLIGRAFIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI: Ushbu maqolada maktab o 'quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari haqida gap boradi //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

14. Avezmurodovich Q. R. JADID MAKTABLARIDA YARATILGAN DARSLIKLAR VA ULARNING METODIK IMKONIYATLARI: Qo 'ldoshev Rustambek Avezmurodovich Buxoro davlat universiteti //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 221-225.

15. Qo'ldoshev R. DARSLIK: MAZMUN VA SHAKL BIRLIGI //" ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал. – 2022. – Т. 1. – №. 1.

16. Qo'ldoshev R. SHAPAQAYLIK: MUAMMO YOKI QOBILIYAT //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

17. Avezmurodovich Q. R., Oybekovna N. D. BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH. QAYTA HIKOYALASH VA BAYON TURLARI. – 2022.

18. Qo'ldoshev R. MAKTAB O 'QUVCHILARINING GRAFIK VA KALLIGRAFIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI: Ushbu maqolada maktab o 'quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari haqida gap boradi //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

19. Qo'ldoshev R. Scientific theoretical basis of construction of elementary school textbooks //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.

20. Qo'ldoshev R. Boshlang 'ich sinf chapaqay o 'quvchilarni yozuvga o 'rgatishning nazariy asoslari //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.

21. Shavkatovna R. G., Nawaz S. Spiritual and Moral Education of Schoolchildren //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 78-82.

22. Shavkatovna R. G., Nawaz S. Spiritual and Moral Education of Schoolchildren //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 78-82.

23. RustambekKuldoshev M. Mathematical statistical analysis of attainment levels of primary left handed students based on pearson's conformity criteria //E3S Web of Conferences. – 2023. – Т. 371. – С. 05069.

24. Rakhmonova G. S. IMPORTANCE OF NATIONAL TRADITIONS AND UNIVERSAL VALUES IN SPIRITUAL AND MORAL UPBRINGING OF THE YOUNG GENERATION //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 931-934.

25. Рахмонова Г. Ш., Намозова Ш. ДУХОВНОСТЬ-ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1455-1460.

26. Рахмонова Г. Ш. и др. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КРЕАТИВ КОМПЕТЕНТЛИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1347-1350.

27. Shavkatovna R. G. Improving Technologies To Develop Spiritual And Moral Competencies In Future Teachers //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – С. 1-5.

28. Рахмонова Г. Ш. и др. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КРЕАТИВ КОМПЕТЕНТЛИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1347-1350.

29. Shavkatovna R. G. Technologies for the Development of Spiritual and Moral Competencies in Students //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – Т. 25. – №. 4. – С. 14205-14210.

30. Raxmonova G. TALABALARNI MA'NAVIY SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY-AHLOQIY TARBIYANING O'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.